

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 336:334.7:005.334(575.1)**

ABDULLAYEVA MADINABONU XASANBOYEVNA

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIIYAVIIY
MUNOSABATLARIDA RISKLARNI PROGNOZLASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA ISHI**

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor D.R.Rustamov

Toshkent - 2026 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDA	
I bob. RISKLARNI VUJUDGA KELISHI VA PROGNOZ	
QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§ Risklarning iqtisodiy mazmuni, turlari va tasnifiy jihatlar.....	12
1.2-§ Risklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularning asosiy usullari.....	25
1.3-§ Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida risklarni prognoz qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	42
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	52
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDA	
II bob. RISKLARNI BOSHQARISH VA PROGNOZ QILISHNING	
AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	55
2.1-§ O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlarining tahlili va risklarni boshqarishdagi ahamiyati.....	55
2.2-§ “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmi va moliyaviy faoliyatining tahlili.....	70
2.3-§ Tanlangan strategiyalar samaradorligi va investitsion risklarni baholash amaliyotining tahlili.....	84
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	98
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY	
III bob. MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA	
PROGNOZLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH..	100
3.1-§ Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy munosabatlarida risklarni boshqarish va prognozlash amaliyotini rivojlantirish.....	100
3.2-§ Risklarni boshqarish samaradorligini oshirishda uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish istiqbollari...	116
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	128
XULOSA.....	130
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	134
ILOVALAR.....	141

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining joriy tendensiyalari yirik kompaniya va fond bozorlarning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni prognoz qilish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni oldini olish borasida aniq yechimlar va qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Xalqaro maydonda yuz berayotgan geosiyosiy muammolar iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning makroiqtisodiy parametrlariga ta'sir qilish bilan birga moliya bozorida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. 2025 yilgi Global risklar hisobotida keltirishicha "2025 yil uchun asosiy muammolar ekstremal ob-havo hodisalari (respondentlarning 14%) va geo-iqtisodiy qarama-qarshiliklari, jumladan: sanksiyalar va tariflar (8%) hisoblanadi. Dezinformatsiyaning tarqalishi va jamiyatning qutblanishi ham 2025 yildagi asosiy risklar sifatida saqlanib qolmmoqda. 2027 yilgacha bo'lgan global prognozlarda esa texnologik va ijtimoiy risklar eng "xavfli" darajasida saqlanib saqlab qoladi. Ular orasida - dezinformatsiya (10 ta asosiy risk orasida 1-o'rin), jamiyatning qutblanishi (4-o'rin) va kiberjosuslik (5-o'rin) kabilar eng yuqori o'rinlarni tashkil qiladi"¹. Yaqin istiqbolda global risklar bo'yicha bu kabi prognozlarni berilishi korporativ tuzilmalar faoliyatiga ham bevosita ta'sir etuvchi muhim faktor hisoblanadi. Tabiiyki, bunday vaziyatda yirik kompaniya va aksiyadorlik jamiyatlari tashqi omillarni tizimli tahlil qilish, moliyaviy risklar va boshqa tahdidlarni prognoz qilish asosida ularning ta'sirlarini minimallashtirishga qaratilgan ilmiy-fundamental tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro yirik kompaniya va korporatsiyalar amaliyotining tahlil natijalari ko'rsatishicha, bugungi kunda tashqi omillarning keskin o'zgarib borayotganligi sharoitida moliyaviy risklarni prognoz qilish va risklarni samarali boshqarish investitsion strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda moliyaviy risklarni boshqarishning bosh maqsadi nafaqat aktivlarni himoya qilish va yo'qotishlarni minimallashtirish, balki kelgusidagi tendensiyalar

¹ https://reports.weforum.org/docs/WEF_Global_Risks_Report_2025.pdf (The Global Risks Report 2025 20th Edition).

sharoitida kompaniyani qanday o'zgarishlar kutmoqda degan savolga yechim topishga qaratilgan. Shunga muvofiq, moliyaviy risklarni prognoz qilish va ularning kompaniya moliyaviy natijalariga kamaytirish borasida yangicha yondashuvlar, hususan kibermakonda yuz berayotgan hatarlar ta'sirini oldini olish, moliyaviy risklarni prognoz qilishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, moliyaviy risklarni boshqarish va prognoz qilishda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish borasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirishga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarish va risklarni prognozlash amaliyotini tashkil etish va rivojlantirish, risk-menejmentini tashkil etishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajaribalaridan samarali foydalanish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-investitsion strategiyalarini rivojlantirishni qamrab oluvchi mustahkam huquqiy asos yaratildi. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 mln. AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish» vazifasi belgilan. Albatta, Strategiyada belgilangan ulkan marralarga erishish nafaqat iqtisodiyotda davlatning ishtirokini kamaytirish balki yirik aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruvning muhim elementlarini joriy etish orqali investitsion va moliyaviy jozibadorligini oshirishga imkon beradi. Shunga muvofiq, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda moliyaviy risklarni prognoz qilish va boshqarishning yangicha uslublarini joriy etish, risklarni boshqarish siyosatini moliyaviy strategiyalar bilan uzviyligini ta'minlash, moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro standartlarini milliy amaliyotda bosqichma-bosqich joriy etish, investitsion risklarni oldindan prognoz qilish natijasida iqtisodiy